

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

SPORT FANLARI USLUBIYATI”

kafedra

302-gurux talabasi

Isoqov Muxiddinning

Sport o'yinlari va uni o`qitish metodikasi fanidan

REFERATI

Mavzu: Voleybol o`yini xaqida tushincha

Jizzax- 2013 yil

V o l e y b o l o ' y i n i h a q i d a t u s h u n c h a .

Reja:

1.Voleybol o'yinining vujudga kelishi, uning dastlabki qoidalari.

2.Voleybol o'yinining sobiq ittifoqda vujudga kelish va rivojlanish tarixi.

3.Xulosa.

Voleybol jamoasi o`yin turlariga mansub bo`lib , o`yinda ikki jamoaning har birida 6 kishi bo`lishi shart. Zahiradagi o`yinchilar soni 2 tadan 6 tagacha bo`lish mumkin.

O`yinchilarning sport kiyimi – futbolka, trusi va shippak. O`yinchilarning yoshi va jinsiga qarab to`rning balandligi quyidagicha:

Qizlar: 13-14 yoshdagilar uchun	2m 10 sm
Ayollar: 17-18 va undan katta yoshdagilar uchun	2m 24 sm
O`gil bolalar: 13- 14 yoshdagilar uchun	2m 20 sm
15-16 yoshdagilar uchun	2m 35 sm
Erkaklar:17-18 va undan katta yoshdagilar uchun	2m 43sm.

O`yin uch yoki besh partiyadan iborat bo`lib, har bir partiyada 15 ochkogacha davom etadi. Agar ochkolar 15:15 bo`lsa, o`yin 17 ochkogacha davom etadi. So`ngi partiyada (3 va 5) da o`yin hisobi «taymberd» asosida olib boriladi. Ya`ni o`yindagi har bir harakat natijasiga qarab to`pni o`yinga kiritish huquqi qaysi jamoada bo`lishidan qat`iy nazar jamoaga mag`lubiyat yoki g`alaba keltirishi mumkin. Hal qiluvchi partiyada o`yin 2 ochko farq qilguncha davom etadi: o`yin jarayonida texnik malakalarni bajarishdagi xatolar:

- To`pni o`yinga kiritishda: agar irg`itilmasdan to`gridan-to`gri «qo`ldan» urilsa;
- To`pni o`yinga kiritishda belgilangan chegara chiziqlarini bosish, to`p irgitilsayu, lekin urilishmasdan tanaga tegsa va hakoza;
- To`pni uzatishda: to`p kaftga tegsa ilib olinsa, ikki qo`l ketma – ket yoki ham tanaga ham qo`lga tegsa va hokazo;
- Zarba berishda: tana va tana qismlarini to`rga tegib ketishi (9-metrli belgilardan chegara oralig`ida) qo`nish vaqtida oyoq o`rta chiziqdan butunlay o`tib ketsa, raqib tomondagi to`pga tegilsa va hakoza.

Himoyada

- To`pni qabul qilishda: agar to`pni uzatishdagi xatolar bo`lsa;

- to'siq qo'yishda, zarba berishdagi xatolar bo'lsa, ochko olishdan yoki to'pni o'yinga kiritish huquqidan mahrum qiladi.

Voleybol 1895 yil o'ynining vujudga kelishi, uning dastlabki qoidalarini:

Voleybol 1895 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Massachusets shitatidagi Xoliok shahrida yosh xristianlar ittifoqini jismoniy tarbiya bo'yicha rahbari pastor Bulyam Morgon tomonidan yaratilgan. U voleybol o'ynini oddiy, ko'p mablag' sarflamasdan tashkil etishni ko'zda tutib yangi o'ynining qoidalarini ishlab chiqdi:

1896 – yilda Springsild shahridagi kollej direktori doktor Alfered Xalsted bu o'yinga «voleybol» deb nom berdi. «Voleybol» inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «parvoz qiluvchi to'p» degan ma'noni beradi.

1897 yilda tadbqiq etilgan ba'zi bir o'yin qoidalarini quydagicha edi.

1. maydoncha chegaralari 7,6 x 15,1 m
2. to'pning o'lchamlari 0,65 x 8,2 sm
3. to'pning vazni 340 g, aylanasi 63,5-68,5 sm
4. o'yinchilarning soni chegaralanmaydi va hokazo.

1895-1920 yillarda o'yini rivojlonishining birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'ynining boshqa davlatlarda vujudga kelishi va rivojlanishi quydagicha:

1900 - yil Kanada, 1908 yil - Kuba, 1910 yil - Peru, 1917 yil - Braziliya, Urugvay, Meksika, Osiyoda – 1900 - 1913 yillar Yaponiya, Xitoy, Filipinda, 1914 yil – Angliya, 1917 yil – Fransiya.

Voleybol o'ynining sobiq ittifoqda vujudga kelishi va rivojlanishi.

Voleybol sobiq Ittifoqda 1920 – 1921 yillarda o'rta Volga (Qozon, Nijniy, Mavgaliya noxiyalarida tarqala boshladi. 1922 yildan boshlab voleybol Vseovuch (umumiy harbiy tayyorgarlik) tarkibida kiritildi.

Moskvada voleybol bilan shugillanishga san'at va teatr vakillari kirishdilar. 1923 yilda tashkil etilgan Dinamo jamiyat sportining boshqa turlari bilan bir qatorda voleybolni ham targ'ib qila boshladi.

Xuddi shu yillarda voleybol Uzoq Sharqda – Xabarovsk va Vladivostokda paydo bo'lgan. 1925 yillarda esa Ukrainada rivojlana boshladi.

SSJI da jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti uchun RKP vNK 1925 yil 13 iyul qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ommani tarbiyalashning samarali usullaridan biri bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish zarurligi uqtirib o'tildi. Markaziy qo'mita qarori voleybolning toboro taraqqiyot etib borishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Sovet davri voleybolchilari o'z oldilariga mamlakatga voleybolni ommalashtirish, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, texnika va taktikani mukammallashtirish, o'yinchilarni har tomonlama jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish kabi qator vazifalarni qo'uydilar. Voleybol hamma yerda tarqala boshladi. Shu bilan bog'liq ravishda musobaqalarning yagona qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

1925 yilning yanvarida Moskva jismoniy tarbiya kengashi voleybol bo'yicha musobaqalarning birinchi rasmiy qoidalarini tuzib tasdiqladi. To'ring balandligi – ayollar uchun 2 m 20 sm va erkaklar uchun 2 m 40 sm qilib belgilandi. Ayollar jamoalarida o'yin 15x 7,5 o'lchamdagi maydonchada o'tkaziladigan bo'ldi.

1926 yillarda voleybol faqatgina Moskvada emas, balki Ukrainada, Shimoliy Kavkazda, Kavkazortida, Uzoq Sharq va O'rta Volga o'lkalarida ham keng tarqaldi.

SSJI voleyboliga taalluqli muhim voqealardan biri 1928 yilning avgustida birinchi Butunittifoqida, Uzoq Sharqda va o'rta Volga o'lkalarida ham keng tarqala boshladi. Moskva ayollari jamoasi g'olib chiqdi.

Birinchi butunittifoq spartakiadasida voleybolchilarning uchrashuvlari musobaqa qoidalarining alohida bandlarini yagona

tartibda izohlash uchun imkon berdi. Bu yerda ayollar jamoalari birinchi bor normal o'lchovli maydonchalarda (18 x 9 m) o'ynaydilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, terma jamoalarning Butin ittifoq spartakiadasiga tayyorlanishi voleybolni joylarda ommaviy ravishida rivojlanishiga turtki bo'ldi. Butinittifoq spartakiadiasi arafasida o'tkazilgan Ukraina birinchiligida jumxuriyatning viloyat shaharlardan 21 jamoasi ishtirok etdi. Kavkazorti eng kuchli jamoasini aniqlash uchun Boku, Tbilitsi va Yerevan shaharlarining jamoalararo uchrashuvlar o'tkazildi.

1931 yilda BLKYEI tashabbusi bilan mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning asosi bo'lgan «mexnat va mudafoda tayyor» Butinittifoq kompleksi ta'sis etildi. Bu tadbirda voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini yuksaltirishdagina emas, balki yoshlarni voleybol mashgulotlariga jalb etishga ham imkoniyat yaratdi.

1932 yildan avval «voleybolchilarning Butinittifoq bayrami» deb atalgan «sobiq ittifoq» birinchiliklari muntazam o'tkazila boshladi.

1935 yil o'yinchilarning xalqaro uchrashuvlarida birinchi bor kuch sinashib ko'rganligi tarixda o'chmas iz qoldirdi. Toshkentda va Moskvada voleybolchilarimizning Avg'oniston jamoasi bilan ikkita o'rtoqlik uchrashuv bo'lib o'tdi. O'yin Avg'on qoidalari bo'yicha o'tkazilganligiga qaramasdan (jamoada 9 o'yinchi bor edi, o'yin 22 ochkoda davom etdi o'yinchilar maydonda joy almashmadilar) sovet voleybolchilari osongina goliblikka erishdilar.

1936 yilning eng ommaviy o'yinlaridan biri VSPS Kubogi uchun 100 dan jamoa bilan o'tgan musobaqalar bo'ldi. Kubokni Moskvaning ayollar va erkaklar jamoasi «Medik» qo'lga kiritdi.

Voleybolning texnik va taktikasigina emas, musobaqa qoidalari ham o'zgarishda davom etardi. Ya'ni 1935 yilda erkaklar uchun to'r balandligi 2 m 45 smga ko'tarildi 1937 yildan esa ayollar uchun 2 m 25 sm bo'lib qoldi.

Maydonchada hujum chizig'i belgilanadi va old hamda orqa o'yinchilari degan tushuncha paydo bo'ldi.

